



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA ONA TILIGA OID LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Qayumova Odinaxon Buvarayim qizi

GulDU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11395095>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida ona tiliga oid lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari, zaruriyati hamda amaliy ahamiyati, shuningdek bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Lingvistika, ta'lim jarayoni, kompetentlik, sath, ona tili, o'qituvchi, o'quvchi, tahlil qilish, badiiy amaliy matnlar, tayanch va fanga oid kompetensiya, kompetensiya, pedagog.

Bugun kunda ta'lim sohasida kompetensiya, kompetentlik kabi tushunchalar muomalada juda keng foydalanilmoqda. Kompetensiya – (“competence”, “to compete” so'zidan kelib chiqib) so'zi o'zida “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” ma'nolarini ifodalaydi. “Kompetensiya” tushunchasi ilk bor XX asrning 50–60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim N.Xomsky “Sintaktik strukturalar”, “Sintaksis nazariyasining aspektlari” nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatida talqin etgan¹.


Kompetensiya tushunchasining qisqacha tarixi quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich – 1960–1970-yillar. Tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D. Xayms tomonidan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kiritiladi.

Ikkinchi bosqich – 1970–1990-yillar. Kompetensiya-kompetentlik kategoriyalarini tilni ayniqsa ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi. Bu paytda “ijtimoiy kompetensiya kompetentlik” tushunchasining mazmuni ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – 1990 va keyingi yillarda kompetensiyaviy yondoshuv, kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'nalishlarda qo'llanila boshlandi. O'zbekistonda dastlab Birinchi Prezidentimiz farmoniga muvofiq, chet tillarni o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan 2012-yil 12-dekabr

¹Xomskiy, N. 1957. Syntactic structures. The Hague, Mouton and Company.





farmoniga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib 2013-2014 o'quv yilidan bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish boshlandi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda xalq ta'limini isloh qilish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Uchinchi tiklanish beshigi sifatida Prezidentimiz g'oyasiga ko'ra, ta'limga e'tibor qaratib, uni tubdan isloh qilish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Zero, ta'limni rivojlantirish uchun islohotni uning eng quyi bo'ginidan boshlash aqlga sig'maydigan o'zgarishlarga olib keladi.

So'nggi yillarda 29 yil 2018-aprelda kuchga kirdi 2019-yil "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori. PP - 5712 xalq ta'limini takomillashtirishning huquqiy asosidir ². Ushbu qarorda umumta'lim maktablarining darslik va o'quv dasturlarini yangilash, o'quv jarayoniga yangi innovatsion usullarni joriy etish, maktablarni har tomonlama texnik qo'llab-quvvatlash, yosh o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitish va ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, 5 ta tashabbusni joriy etish va o'qituvchilarning ijtimoiy mavqeini oshirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 yil 2022-maydagi "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi


PQ-134 Farmoniga binoan amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar ham ta'limga e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi³.

Lingvistik kompetensiya – bu, nutqiy faoliyatni tartibga soluvchi grammatik qoidalarni amaliyotda uyg'unlikda – o'rganayotgan tilda so'z va jummalarni to'g'ri qo'llay olish, nutqda fikrning gapdagi ifodasining to'g'ri-noto'g'riligini ajrata olish layoqatidir, ya'ni bo'lajak pedagogning o'zbek tilidan "lingvistik kompetensiyasi" tushunchasi deganda bu uning o'zbek tili birliklari, nutqiy xususiyatlarni anglay olishi, til hodisalarini tahlil qila olishi, qismlarni bir butunga birlashtira olishi, namunalar asosida jumla qura olishga tayyorligidir.

Mazkur kompetensiyani rivojlantirish mazmuni bo'lajak o'qituvchilarda fikr va mulohazalarini o'z ona tilida erkin, aniq, qisqa, ravon va tushunarli tarzda bayon eta olishiga, o'z nutqida adabiy til normalariga rioya qilgan holda so'zlash, imlo va uslubiy xatolarsiz fikr almashishga yordam beradi. Olima G.Yusupovaning "Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni.


³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 yil 2022-maydagi "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-134 Farmoni






shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi" nomli tadqiqoti natijasida bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanishning tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, o'zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari aniqlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin⁴. Mazkur tadqiqotda ta'lim jarayonida o'uvchilarning o'zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari bo'yicha asoslab berilganligi ishning yutug'i hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya va nutqiy kompetensiya o'zaro chambarchas bo'g'liq bo'lgan, nazariy bilimlarning ikki qismidir. Birida termin-tushuncha egallanadi, ikkinchisida shu bilim orqali taqdim etilayotgan til hodisasini nutqda to'g'ri qo'llash sodir bo'ladi. Nazariy bihm ham, til hodisasi ham vaqti-vaqti bilan ishga tushirilib turilmasa, egallangan kompetensiya darajasi sekin-asta pasayadi: unutishdan iborat regressiv harakat natijasida sifatini yo'qotib boradi. Quyida ushbu ikki kompetensiya turlarining bir-biridan farqli ravishda shakllanish jarayonlari keltirilgan:



Kompetensiya turlarining farqli shakllanish jarayonlari.

⁴ **Yusupova Gulara Ataxanovna** "Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi (o'zbek tili mashg'ulotlarida "Savodxon" elektron-ta'lim resurslari misolida)" mavzusidagi tadqiqot ishi





Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, lingvistik kompetensiya atamasi dastlab lingvistika va metodikada chet tillarni o'qitish tizimida foydalanilgan bo'lsa, qisqa muddatdagi izchil taraqqiyoti davomida qo'llanilish doirasi kengaydi, yangi so'zlarning yasashiga asos bo'ldi. Nafaqat chet tilini o'qitish, balki ona tilini va ikkinchi tilni o'qitishda, umuman tillarni o'qitish metodikasida keng o'rin egalladi. Kommunikativ kompetensiya umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda tayanch kompetensiyalardan biri, o'quvchilarda shakllantiriladigan asosiy kompetensiya sifatida e'tibor markaziga qo'yilsa, oliy ta'limda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida tadqiqotlar obyektiga aylanmoqda. Binobarin, lingvistik kompetensiyalarning tarkibiy qismlarini ajratib olish, uning har bir komponentiga xos xususiyatlarni aniqlashtirish, o'zbek tili ta'limining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 yil 2022-maydagi "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-134 Farmoni
3. Xomskiy, N. 1957. Syntactic structures. The Hague, Mouton and Company.
4. Yusupova Gulara Ataxanovna "Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi (o'zbek tili mashg'ulotlarida "Savodxon" elektron-ta'lim resurslari misolida)" mavzusidagi tadqiqot ishi.
5. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi“, 1992.15-16
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat // O'quv qo'llanma. Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA" 2010. 312

